

## TOSHKENT VILOYATI ALLA MATNLARINING DIALEKTOLOGIK XUSUSIYATLARI VA LEKSIK QATLAMI

**Kamola Nosirova Baxramovna,**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Tayanch doktranti,  
ORCID: 0009-0009-6293-3758*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Toshkent viloyati hududida shakllangan alla matnlarining dialektologik xususiyatlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Ushbu folklor namunalari qarluq-chigil-uyg'ur sheva guruhiga mansub areal nutqining fonetik, leksik va qisman grammatik belgilarini aks ettiruvchi muhim manba sifatida baholanadi. Tadqiqot jarayonida mazkur mavzuga oid tilshunos olimlarning ilmiy qarashlari tahlilga jalb etilib, ularning fikrlari asosida nazariy yondashuvlar aniqlashtiriladi. Shuningdek, tarixiy asarlarda uchraydigan muqobil leksik birliklar qiyosiy-tarixiy metod asosida ko'rib chiqiladi. Alla matnlarida uchraydigan kundalik turmushga oid leksik birliklar semantik jihatdan tizimlashtirilib, ularning tarixiy qatlamlari, hududiy xususiyatlari hamda qo'llanish doirasi aniqlanadi. Mazkur birliklarning areal lingvistika nuqtai nazaridan ahamiyati asoslab berilib, ularning dialektologik tadqiqotlardagi ilmiy qiymati yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** dialektologiya, qarluq shevasi, alla, yor-yor, folklor, leksika, areal lingvistika, izoglossa.

**Аннотация.** В данной статье комплексно анализируются диалектологические особенности текстов алла, сформировавшихся на территории Ташкентской области. Указанные фольклорные образцы рассматриваются как важный источник, отражающий фонетические, лексические и частично грамматические признаки ареальной речи, относящейся к карлукско-чигильско-уйгурской группе говоров. В ходе исследования к анализу привлечены научные взгляды лингвистов, занимающихся данной тематикой, на основе которых уточняются теоретические подходы. Кроме того, альтернативные лексические единицы, встречающиеся в исторических источниках, рассматриваются с применением сравнительно-исторического метода. Лексические единицы, связанные с повседневной жизнью и встречающиеся в текстах алла, систематизируются с семантической точки зрения; определяются их исторические слои, территориальные особенности и сферы употребления. Обосновывается значение данных единиц с позиции ареальной лингвистики и раскрывается их научная ценность в диалектологических исследованиях.

**Ключевые слова:** диалектология, карлукский говор, алла, ёр-ёр, фольклор, лексика, ареальная лингвистика, изоглосса.

**Abstract.** This article provides a comprehensive analysis of the dialectological features of lullaby (alla) texts formed in the Tashkent region. These folklore samples are considered an important source reflecting the phonetic, lexical, and partially grammatical features of the areal speech belonging to the Karluk-Chigil-Uyghur dialect group. In the course of the research, the scientific views of linguists related to the topic are involved in the analysis, and theoretical approaches are clarified based on their perspectives. In addition, alternative lexical units found in historical sources are examined using a comparative-historical method. The everyday-life lexical units occurring in the alla texts are semantically systematized, and their historical layers, regional characteristics, and scope of usage are determined. The significance of these units from the perspective of areal linguistics is substantiated, and their scientific value in dialectological research is highlighted.

**Keywords:** dialectology, Karluk dialect, folklore, lullaby, yor-yor, lexical layer, areal linguistics.

**Kirish.** O'zbek tilining dialektologik tizimida Toshkent viloyati qarluq dialekt zonasining markaziy areallaridan biri sifatida alohida o'rin egallaydi. E.D. Polivanov va V.V. Reshetov tomonidan ishlab chiqilgan tasnifga ko'ra, Toshkent-Farg'ona hududi qarluq dialektining asosiy markazini tashkil etadi. Mazkur hudud adabiy o'zbek tilining

shakllanishida ham muhim manba bo‘lib xizmat qilgan. Shu nuqtai nazardan, Toshkent viloyatida shakllangan marosim folklori, xususan alla matnlari, nafaqat og‘zaki poetik meros namunasi, balki hududiy nutqning tabiiy ko‘rinishini aks ettiruvchi muhim dialektologik material hisoblanadi. Ushbu matnlar orqali tilning tarixiy rivoji, leksik qatlamlari va hududiy variantlarini aniqlash imkoniyati mavjud.

Dialektologiyada eng muhim masalalardan biri — til materialining qanchalik tabiiy ekanligidir. Chunki yozma manbalar ko‘pincha tahrirlangan, normallashtirilgan bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, V.V. Reshetovning “Shevalarning eng barqaror elementlari og‘zaki nutqda saqlanadi” degan fikri alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan shu xususiyat alla matnlarini dialektologik tadqiqot uchun eng ishonchli manbalardan biriga aylantiradi.

Biz ushbu maqolamizda Toshkent viloyatining turli hududlaridan (Parkent, Bo‘stonliq va boshqalar) yozib olingan alla matnlarini tahlilga tortdik.

**Adabiyotlar sharhi.** Ushbu maqolada E.D.Polivanovning “Uzbekskaya dialektologiya”, V.V. Reshetovning “Uzbekskaya dialektologiya”, Sh.Shoabduraxmonov “O‘zbek dialektologiyasi”, F.Abduraxmonov “O‘zbek shevalari leksikasi”, A.K.Borovkovning “Введение в узбекскую диалектологию”, Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, Jo‘rayev M.ning “O‘zbek folklori asoslari”, B.Karimovning “Areal lingvistika asoslari”, X.To‘raqulovning “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” va N.Mahmudov “Til va nutq madaniyati” Mahmud Qoshg‘ariyning “Qutadg‘u bilig” asarlaridan foydalandik.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda deskriptiv metod (matnlarni tavsiflash), qiyosiy-tarixiy metod (tarixiy birliklar bilan solishtirish), semantik tahlil (leksik birliklarni guruhlash), areal lingvistik yondashuv (hududiy xususiyatlarni aniqlash) metodlardan foydalanildi.

**Natijalar.** Alla matnlarini o‘rganishning muhim jihati shundaki, alla matnlari nafaqat og‘zaki, balki marosim nutq shakli hisoblanadi. Jumladan Parkent tumanining So‘qoq qishlog‘ida chaqaloqning chillasi chiqqandan keyin ona farzandi va qarindoshlari bilan ota uyiga boradi. Bu marosim chhillagirozon deb ataladi. Mana shu marosimda qatnashayotgan ayollar chaqaloqqa atab navbat bilan alla aytadilar. Qolgan ayollar esa alla aytgan ayolga alla haqqi beradilar. Marosimda qatnashayotgan ayollar navbat bilan hammalari alla aytadilar. Alla aytayotgan ayollar o‘z allalari bilan bir qatorda buvilaridan, onalaridan eshitgan allalarni aytadilar. Tabiiyki, allalarida sof dialektal so‘zlar uchraydi. Bu kabi marosimlarni viloyatning turli hududlarida uchratishimiz mumkin. Bu esa marosimiy nutqda til birliklari uzoq vaqt davomida o‘zgarmay saqlanishini kafolatlaydi. Shu sababli bu matnlarda shevaga xos leksik birliklar, hatto kundalik nutqda yo‘qolib borayotgan unsurlar ham saqlanib qolishi mumkin. Demak, folklor matnlarini o‘rganish orqali biz nafaqat hozirgi holatni, balki tilning tarixiy qatlamlarini ham o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Dialektologik materiallarning tahlili shuni ko'rsatadiki, Toshkent viloyati hududida qo'llaniladigan kundalik turmush leksikasi tarkibida bir necha tarixiy qatlamlar ajralib turadi. Birinchi qatlam umumturkiy leksik birliklardan iborat bo'lib, ular qadimgi turkiy til davriga oid bo'lib, ayni shu qatlamda uy-ro'zg'or buyumlari, kundalik turmushda qo'llaniladigan mehnat qurollari va oila munosabatlariga oid ayrim birliklar tarixiy-lingvistik jihatdan qadim davrlarda borib ta'qaladi. Mahmud Qoshg'ariyning "Qutadg'u bilig" asarida kelgan ba'zi leksik qatlam bugungi kunda ham alla matnlarida ham o'z aksini topadi.

*Ata teg er bolsa, og'ul tuz olur*

"Ota qanday bo'lsa, farzand ham shunday bo'ladi."

Dala to'la **bidayim**,  
Yig'arga nabat keldi.  
Atang ketgan o'ringa,  
Anang qiynalip qaldi.

Yuqoridagi maqolda **ata**, **og'ul** leksikalari kelgan. Bu so'zlar hozirda ham qarluq shevasida ayni shu shaklda uchraydi.

*Ana birle og'ul qutluq bolur*

Bu maqolda esa **ana** qarindoshlik leksikasi kelib Toshkent shevasida: *ena / ona* variantlari uchraydi.

Anammi sag'inganimda,  
Dardimmi etip-etip,  
Yag'lap avinganimsan,  
Alla balam, alla.

*Ev tutsa er, ev ichra qut bolur*

Ma'nosi: "Er kishi uy tutsa, o'sha uyda baraka bo'ladi."

Keltirilgan maqolda **qut** leksikasi kelgan bo'lib bugungi kunda ham Toshkent viloyati Qarluq shevalarida faol qo'llanib, qut –baraka ma'nosida ishlatiladi. Ko'p hollarda qut-baraka juft so'z shaklida qo'llaniladi.

Alla bolam alla-yo,  
Qut –barakam alla-yo.  
Shirin so'zim alla-yo,  
Ko'rar ko'zim alla-yo.  
Alla bolam alla.

Bu kabi misollarni kop'lab keltirishimiz mumkin. Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, "**Qutadg'u bilig**" tilida uchraydigan birliklar – bugungi kunda ham qarluq lahjasida gaplashuvchi xalq tilida iste'molda ekanligini ko'rishingiz mumkin. Bu leksik qatlam xalq og'zaki namunalari bo'lmish alla matnlarida ham faol qo'llaniladi. Bundan ko'rinadiki, Toshkent viloyati leksik jihatdan "Qutadg'u bilig" asari tilining to'g'ridan-to'g'ri davomchilaridan biridir desak mubolag'a bo'lmaydi. Quyida "Qutadg'u

bilig” asarida keltirilgan leksik birliklarning sheva vakili tomonidan ijro etilgan alla matnida uchhrashiga misollar keltiramiz.

Ikkinchi qatlam umumxalq o‘zbek tiliga mansub birliklardan tashkil topgan. Ya’ni bu qatlamda uchraydigan leksik birliklar adabiy til tarkibiga kiritilgan va boshqa sheva tarkibida ham uchrashi bilan harakterlanadi.

**Tovoq: bu so‘z qarluq shevasida (Toshkent, Farg‘ona):**

**tovoq** → ovqat solinadigan ichi chuqurroq idish bo‘lib, adabiy tilga ham shu ma’noda kirgan.

**Qipchoq shevalarida (Qashqadaryo, Surxondaryo ayrim hududlari):**

**tovoq** → katta lagan, ba’zan **ovqat tortiladigan katta patnis**

**Yosti: bu so‘z qarluq shevasida (Toshkent):**

**yosti** → bosh qo‘yiladigan yumshoq buyum

**O‘g‘uz shevalarida (Xorazm):**

**yosti** → ba’zan **katta yostiq (ko‘rpaga o‘xshash)** yoki yopinchiq. Suyanib o‘tirish uchun ishlatiladigan buyum.

O‘g‘uz shevasida yostiq semantik kengaygan

**Opa: Qarluq shevasida (Toshkent)**

**opa** → o‘zidan oldin tug‘ilgan katta qiz farzand yoki o‘zidan katta ayolga hurmat bildiruvchi murojaat.

**Qipchoq shevalarida (Jizzax, Qashqadaryo):**

**opa** → **ona ma’nosida ham ishlatiladi.** Ammo tub Toshkent shevasida onaga nisbatan opa deb murojaat qilingan. Ammo bugungi kunda onaga oyi deb murojaat qilish kengaygan.

**Osh: Qarluq shevasida:**

**osh** → palov, ma’lum bir taom nomini anglatadi. Ya’ni tor ma’noda qo‘llanadi.

**Qipchoq shevalarida (Qoraqalpoq):**

**osh** → umumiy taom nomini anglatadi.

Qaynamga ko‘nmasen,  
Avsinimga ko‘nmasen,  
O‘rap bag‘rimga baseb,  
Oshimmi qilolmasam,  
Alla balam, alla.

Uchinchi qatlam esa hududiy dialektal birliklardan iborat bo‘lib, ular Toshkent viloyati arealiga xos lokal xususiyatlarni aks ettiradi. Bu leksik birliklar esa faqat qarluq shevasi tarkibida uchrab shu sheva vakillarigagina tushunarli bo‘lgan sheva leksikasini nazarda tutadi. Quyida Toshkent viloyatining To‘ytepa tumani Qaytmas qishlog‘i aholisi tomonidagina ishlatiladigan leksik birliklarni keltiramiz.

**To‘man yoqqa** bordim-Mahallaning boshlanishi;

**Sada** –mahallaning o‘rtasi;

O‘r-mahallaning oxiri;

**Supra yoydi**-to‘yning ertasi kuni qaynona kelinni oshxonaga kiritib kelinga oshxonani topshirish marosimi.

Demak, leksik tahlil faqat tilshunoslik masalasi emas, balki etnomadaniy tadqiqotga ham aylanadi.

**Xulosa.** Yuqorida fikrlardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, alla matnlari nafaqat dialektologiya, balki areal lingvistika uchun ham muhim manba hisoblanadi.

-birinchidan, alla matnlari shevaning eng tabiiy va ishonchli ko‘rinishini aks ettiradi;

-ikkinchidan, ushbu matnlarda kundalik turmush leksikasi markaziy o‘rin tutib, u tilning eng barqaror qatlamini tashkil etadi;

-uchinchidan, leksik tizim tarixiy qatlamlardan iborat bo‘lib, ular o‘zaro uzviy bog‘langan;

-to‘rtinchidan, folklor matnlari konservativ va innovatsion elementlarning uyg‘unlashgan tizimini namoyon etadi;

-beshinchidan, ushbu matnlar hududiy til xususiyatlarini aniqlashda muhim areal lingvistik manba vazifasini bajaradi.

Shu bois, Toshkent viloyati folklor materiallarini tizimli ravishda yig‘ish va ilmiy tahlil qilish o‘zbek dialektologiyasining istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология. – М., 1933.
2. Решетов В.В. Узбекская диалектология. – Ташкент: Фан, 1959.
3. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент, 1978.
4. Абдурахмонов Ф. Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент, 1985.
5. Боровков А.К. Введение в узбекскую диалектологию. – М., 1963.
6. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2006.
7. Жўраев М. Ўзбек фольклори асослари. – Тошкент, 2012.
8. Каримов Б. Ареал лингвистика асослари. – Тошкент, 2015.
9. Тўракулов Х. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. – Тошкент, 2008.
10. Mahmudov N. Til va nutq madaniyati. – Toshkent, 2010.